

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMINING RIVOJLANISHI VA KELGUSIDAGI REJALARI

Usmonov Suxrob Abdurasul o'g'li

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti o'qituvchisi.

Jumayeva Gavhar Ergash qizi

Termiz davlat universiteti "Iqtisodiyot" yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19947019>

Annotatsiya. Ushbu maqolada, O'zbekiston iqtisodiyotini jadal rivojlantirishda soliq siyosatining o'rni, so'ngi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning ijobiy natijalari tahlil qilingan. Shuningdek, 2024-yil yakunlari va 2025-yilning birinchi choragi bo'yicha aniq statistik ma'lumotlar, soliq tushumlarining o'sish sur'atlari, xizmat ko'rsatish sohasini, aniqroq qilib aytganda tezkor taksi xizmatlarini qonuniylashtirish hamda raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi yoritilgan. Shu bilan birga, 2026-yildan boshlab kuchga kirishi kutilayotgan yangiliklar: xorijiy online platformalarni soliqqa tortish, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" loyihasi, soliqlarning sarflanishini nazorat qiluvchi "Ochiq budjet" moduli va tadbirkorlik subyektlari uchun joriy etiladigan yangi imtiyozlar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston iqtisodiyoti, soliq siyosati, soliq ma'murchiligi, raqamlashtirish, xufiyona iqtisodiyot, soliq tushumlari, qonuniylashtirish, raqamli markirovka, Ochiq budjet, soliq imtiyozlari, jismoniy shaxslar, tadbirkorlik, soliq kodeksi,

Annotation. This article analyzes the role of tax policy in the rapid development of the economy of Uzbekistan, the reforms implemented in recent years and their positive results. It also provides detailed statistical data for the results of 2024 and the first quarter of 2025, the growth rates of tax revenues, the effectiveness of the legalization and digitization processes of the service sector, more precisely, express taxi services. At the same time, detailed information is provided on the innovations expected to come into force from 2026: taxation of foreign online platforms, the "Best Taxpayer Neighborhood" project, the "Open Budget" module that controls tax spending, and new benefits for business entities

Key words: Economy of Uzbekistan, tax policy, tax administration, digitization, hidden economy, tax revenues, legalization, digital marking, Open budget, tax benefits, individuals, entrepreneurship, tax code.

Kirish

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi samarali soliq tizimiga bevosita bog'liqdir. Soliq siyosati nafaqat davlat budjetini shakllantirish vositasi, balki iqtisodiyotni tartibga solish, tadbirkorlikni rag'batlantirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va hududlar rivojini qo'llab-quvvatlashning muhim mexanizmi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasida alohida o'rin egallaydi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda soliq ma'murchiligini soddalashtirish, xufiyona iqtisodiyot ulushini qisqartirish, soliq yukini maqbullashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali shaffof va adolatli soliq muhitini yaratishga qaratilgan keng ko'lamlis islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, elektron xizmatlar, onlayn nazorat tizimlari, raqamli markirovka va idoralararo integratsiya jarayonlari soliq tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqdi.

Mazkur maqolaning maqsadi - O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning natijalarini statistik ma'lumotlar asosida yoritish hamda 2026-yildan boshlab joriy etilishi kutilayotgan yangiliklarning iqtisodiy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Asosiy qisim O'zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishida soliq siyosati asosiy qismlardan biri bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda soliq ma'murchiligini soddalashtirish, xufiyona iqtisodiyotga barham berish va soliq to'lovchilar uchun shaffof muhit yaratish yo'lida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bularni amalga oshirishdan asosiy maqsad aholi farovonligi hamda yurt tinchligi ta'minlashdir.

Soliqlar bu – majburiylik, o'zgaruvchanlik va ekvivalentsizlik xarakteriga ega bo'lgan, faqat qonun yo'li bilan joriy etiladigan, yuridik va jismoniy shaxslardan aniq stavka va muddatlarda undiriladigan va faqat davlat budjetiga yo'naltiriladigan to'lovlardir.¹

O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi" kabi bir qancha huquqiy normalar asosida adolatli boshqarib boriladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 149-moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qiladi. Soliqlarni joriy qilish huquqi O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisiga tegishlidir.²

O'zbekiston Respublikasidagi soliqlarning va yig'implarning turlari haqida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida batafsil aytib o'tilgan, uning 17- moddasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi xududida quyidagi soliqlar belgilanadi:

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) yer qaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 51) foydali qazilmalarni qazib olganligi uchunmaxsus renta solig'i; (birinchi qismning 51-bandi O'zbekiston Respublikasining 202- yil, 29-dekabrda O'RQ-741-sonli Qonuni bilan kiritilgan - QMMB, 30.12.2021 y., 03/21/741/1219- son)
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq;

O'zbekiston Respublikasi xududida yig'implar belgilanishi mumkin. Yig'implarni joriy etish, xisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeksda xamda boshqa qonunchilik xujjatlarida belgilanadi. (Ikkichi qism O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-aprelda O'RQ-683-sonli Qonuni taxririda – QMMB, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son)

Chet davlatlar avtotranspport vositalarining O'zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig'imni, yuk ko'tarish quvvati 10 tonnadan yuqori bo'lgan yuk avtotransporti vositalari va tirkamalarning avtomobil yo'llari bo'ylab harakatlanishi huquqi uchun yig'imni hamda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig'implarni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Kodeks bilan tartibga solinadi. (Uchinchi qism O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 8-dekabrda O'RQ-891-sonli Qonuni tahririda - QMMB, 21.04.2021 y., 03/23/891/0989-son)

Davlat bojini hisoblab chiqaris va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonunchilikda belgilanadi. (To'rtinchi qism O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RB-683-sonli Qonuni tahririda – QMMB, 21.04.20211 y., 03/21/683/0375-son)³

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini rivojlantirish uchun bir qancha jadal islohotlar olib borilmoqda va bu o'zgarishlar sezilarli darajada yurt rivojiga ta'sir qilmoqda. Buning natijasini quidagi malumotlarda yaqqol ko'rish mumkin.

Jumladan, 2025-yilning 1-aprel kuni Toshkent shahrida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi binosida O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining "Soliq qo'mitasi faoliyatining 2024-yildagi yakunlari: natija va kelgusi rejalar" mavzusidagi matbuot anjumani bo'lib o'tdi. 2024-yilda soliq tushumlari. 2024-yilda O'zbekiston iqtisodiyoti jadal rivojlanib, yalpi ichki mahsulot (YAIM) 6,5%ga o'sdi. Ushbu makroiqtisodiy barqarorlik davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda zamin yaratdi. Natijada, 2024-yilda soliq siyosatini hamda soliq ma'murchiligini yaxshilash evaziga davlat budjetiga tasdiqlangan prognoz 196,5 trln.so'm o'rniga 199,5 trln.so'm tushishiga erishildi. Bu esa 2023-yilga nisbatan 33,5 trln so'm yoki 20,2% ga ko'p soliq tushumlari ta'minlandi. Hududlar kesimida tushumlarda eng yuqori o'sish sur'atlari Toshkent shahrida (26,7%), Sirdaryo (14,6%), Toshkent (22,9%), Xorazm (19,5%) va Samarqand (17,7%) viloyatlarida qayd etildi.

2024-yilda sohalarga biriktirilgan soliq inspektorlari tomonidan soliq hisobotlarini tahlil qilish va tafovutlarni bartaraf etish hisobiga 486,3 mlrd so'm qo'shimcha soliq hisoblanib shundan 418,7 mlrd so'm undirildi;

64,5 mingta vaqtincha moliyaviy qiyinchilikka duch kelgan tadbirkorlik subyektlari bilan alohida ishlab, muammolarini hal etilishida yordam berilishi natijasida ularning faoliyati qayta tiklandi;

129,3 mingta yangi dehqon xo'jaligi ro'yxatdan o'tkazildi; 8,7 mingta o'zini o'zi band qilganlar o'z faoliyatini kengaytirib YTTga, 947 nafar YTTning faoliyati esa yuridik shaxs sifatida yiriklashtirildi;

joriy yil boshiga nisbatan mahallalar kesimida kichik tadbirkorlar hisobiga 41,4 mingta ishchi soni oshishiga erishilgan bo'lsa, ularning tovar aylanmasi oldingi yilning mos davriga nisbatan 22 817,8 mlrd so'mga oshdi.

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin, albatta. Bugungi kunda aholi va biznes uchun qulayliklarni oshirish, inson aralashuvini kamaytirish maqsadida soliq organlari faoliyati izchil raqamlashtirilmogda. Soliq ma'murchiligini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotni jilovlashga qaratilgan yangi dasturiy mahsulotlar ishga tushirildi va ularning soni 74 taga yetdi. Idoralararo hamkorlik doirasida o'zaro elektron axborot almashish yo'lga qo'yilgan vazirlik va tashkilotlar soni 60 taga, integratsiya yo'nalishlari soni 238 taga yetkazildi. 201 ta marketpleyslar ro'yxatga olindi. Shuningdek, sohada raqamlashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish, soliq nazoratida "inson omili"ni cheklash hamda iqtisodiyotda xufiyona aylanma ulushini qisqartirish, qolaversa iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida raqamli markirovkalash tizimi joriy etilgan. "Raqamli markirovka" tizimida ro'yxatdan o'tgan 3,5 ming subyektlar tomonidan 2024-yilda 100 mingdan ortiq mahsulot turi "raqamli markirovka" katalogiga kiritilgan, shundan qariyb 8,2 mlrd. dona markirovkalangan tovarlar ishlab chiqarildi.

Aholiga yo'nalishsiz taksi xizmatini ko'rsatayotgan subyektlar faoliyatini legallashtirish bo'yicha agregatorlik xizmatini ko'rsatayotgan subyektlarning axborot tizimlari 2023-yil dekabr oyidan boshlab soliq organlarining ma'lumotlar bazasiga integratsiya qilish hisobiga soliq

tushumlari keskin oshdi 2025-yilning 1-yanvar holatiga ularning soni 155 taga yetdi. Xususan, mazkur xizmat bozorining ishtirokchilari bo'lgan "YandexGo", "Uklon", "My taxi", "GeoGo", "MegaGo", "TurboTaxi" va boshqa agregatorlar orqali 497,9 mingdan ortiq (4 mingdan ortiq ayollar) fuqarolarning faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida legallashtirilib, 2024-yilda mijozlarga 5,9 trln so'mlik 319,1 mln dona chek rasmiylashtirilgan. Integratsiya jarayonlaridan keyin ushbu agregatorlar tomonidan 2024-yilda jami 156,8 mlrd so'm shundan, QQS 66,2 mlrd so'm soliqlar to'langan. Vaholanki, ushbu soha vakillari 2023-yilda deyarli soliq to'lamagan. "YandexGo" orqali 430,5 mingdan ortiq fuqarolarning faoliyati o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida legallashtirilib, 2024-yilda mijozlarga 5,2 trln so'mlik 271,3 mln dona chek rasmiylashtirilgan. "YandexGo UB" MCHJ tomonidan 2024-yil 12 oyda jami 145,2 mlrd so'm shundan, QQS 64 mlrd so'm soliqlar to'langan. Raqamli texnologiyalar yechimlaridan foydalanish "biznesni soyadan olib chiqishda" katta muvaffaqiyatlarga erishish imkonini bermoqda hamda teng raqobat muhiti shakllanmoqda.

2025-yilning dastlabki natijalari. 2025-yilda ham soliq tushumlarini ko'paytirish va soliq ma'murchiligini yaxshilash bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda. Jumladan dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 1-choragida davlat budjetiga belgilangan 45,5 trln so'm o'rniga 48,2 trln so'm tushumlar ta'minlandi yoki 2,7 trln so'm qo'shimcha mablag'lar jalb qilindi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan (40,3 trln so'm) 20 % ga, hududlarda hattoki 25 % o'sishga erishildi. Bunda asosiy ulush foyda solig'i – 11,8 trln so'm, QQS – 9,8 trln so'm, aksiz solig'i – 4,5 trln so'm va boshqalar. (Soliq qo'mitasi Matbuot xizmati)⁴

2026-yildan boshlab O'zbekistonning qonunchiligiga bir qancha o'zgartirishlar va yangilanishlar kiritilishi aytib o'tilmoqda. Shu bilan birga soliq tizimi ham bundan mustasno emas.

Quyidagi ma'lumotlarda bu o'zgarishlar bilan batafsil tanishib chiqishimiz mumkin. Soliq ro'yxatidan o'tmagan xorijiy onlayn platformalar cheklanishi mumkin. 2026-yil 1-yanvardan O'zbekistonda soliq organlarida ro'yxatdan o'tmay faoliyat yuritayotgan xorijiy onlayn kompaniyalarga cheklovlar qo'llanadi. Ularga ro'yxatdan o'tish uchun 30 kun beriladi. Soliq qo'mitasi fuqarolarning xorijiy kompaniyalarga qilgan to'lovlari bo'yicha anonim ma'lumotlarni olishni rejalashtirmoqda. Eng yaxshi soliq to'lovchi mahallalar 2 mlrd so'm miqdorida rag'batlantiriladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" nominatsiyasi joriy etiladi. Bunda g'oliblarni aniqlash bo'yicha mezonlar belgilangan bo'lib, ular asosida har yili birinchi 100 talikka kirgan eng yaxshi soliq to'lovchi mahallalarning har biriga Davlat budjetidan 2 milliard so'm miqdorida mablag' tegishli mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish jamg'armasiga ajratiladi. Bunda ajratilgan mablag'lar tegishli fuqarolar yig'ini kengashi qarori asosida faqat ushbu mahalla hududi infratuzilmasini (ichki yo'llarni ta'mirlash, ichimlik suvi va elektr ta'minotini yaxshilash, ko'cha chiroqlarini o'rnatish va boshqa infratuzilma loyihalarini) yaxshilash uchun yo'naltiriladi.

Mol-mulk va yer solig'ini undirishda ham elektr energiyasining billing tizimidan foydalaniladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab Namangan viloyatida jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va (yoki) yer solig'i bo'yicha umumiy summasi 1 million so'mdan oshgan soliq qarzdorligini undirishda elektr energiyasining billing tizimi mexanizmidan foydalanish joriy etiladi. Tizim 2026-yil 1-oktabrga qadar eksperiment natijalari asosida boshqa hududlarda ham joriy etiladi.

O'zbekistonliklar to'layotgan soliqlari nimalarga sarflanayotganini kuzatishi mumkin bo'ladi. 2026-yil 1-yanvardan boshlab "Ochiq budjet" axborot portalida jismoniy shaxslar tomonidan to'langan soliqlar hisobidan amalga oshiriladigan budjet xarajatlari ma'lumotlarini o'zida aks ettiruvchi "Jismoniy shaxslarning soliqlari hisobidan xarajatlar" moduli ishga tushiriladi.

Bunda:

Jismoniy shaxs tomonidan muayyan davrda to'langan daromad solig'i, mol-mulk solig'i va yer solig'i to'g'risidagi ma'lumot; to'langan soliqlar evaziga Davlat budjetidan amalga oshirilgan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar (xarajatlar yo'nalishlari kesimida) doimiy ravishda e'lon qilib boriladi.

Gips qazib chiqarish solig'i qisqartirilib, sement sotish talablari yumshatiladi. 2026-yildan boshlab O'zbekistonda gips xomashyosini qayta ishlovchi korxonalar uchun uni qazib chiqarish bo'yicha soliq stavkasi ikki barobarga kamaytiradi. Shuningdek, sement zavodlariga mahsulotning bir qismini birja orqali sotish talablari yengillashtiriladi.

Issiqxona xo'jaliklariga 1 foizli ijtimoiy soliq stavkasi qo'llanadi. O'zbekistonda 2026-yil 1-yanvardan 2028-yil yakuniga qadar issiqxona xo'jaliklariga 1 foizli ijtimoiy soliq stavkasi qo'llanadi. Issiqxona xo'jaliklari uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun ularga yana bir qator soliq va kredit imtiyozlarini berish ko'zda tutilgan.

Chet el fuqarolari uchun maxsus soliq rejimi joriy etiladi. 2026-yil 1-yanvardan quyidagi shartlarga javob beradigan chet el fuqarolarining O'zbekiston hududidan tashqaridagi manbalardan olingan daromadlarini jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan ozod qilishni nazarda tutuvchi chet el fuqarolarining daromadlarini soliqqa tortishning maxsus soliq rejimi joriy etiladi:

50 ming AQSh dollari miqdorida maxsus yig'im to'lash;

O'zbekistondagi maxsus vakolatli tijorat bankida bank hisobvarag'ini yoki maxsus vakolatli kripto-birjada kripto-hamyon ochish.⁵

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston soliq tizimidagi joriy islohotlar shunchaki mablag' yig'ish mexanizmi emas, balki mamlakat iqtisodiyotini sog'lomlashtirishning strategik vositasiga aylandi. Ayniqsa soliq tizimida soliqlarni yig'ish va u haqidagi ma'lumotlarni batafsil berishda foydalanilayotgan texnologiyalar hamda sun'iy intellect orqali amlaga oshirilayotgan tizim tahsinga sazovor. Bu texnologiyalar orqali inson omilini kamaytirish hamda korrupsion xolatlarning oldini olish ko'zda tutilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, mahallalardan yig'ilgan soliqlar ham mahallaning rivojlanishi uchun ishlatilishi, yani o'zi uchun investitsiya qilish, jamiyatga hissa qo'shish demakdir.

Shuningdek, yangi biznes boshlaganlarga xususan, issiqxonalar tashkil etish, o'zini o'zi band qilish, xizmat ko'rsatish kabi ishlar bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlarga, nogironligi bo'lgan shaxslarga kam foizli kreditlar ajratilmoqda. Bu orqali "soyada" qolgan yani ishsiz qolgan qatlam vakillarini ruhlantirish va mamlakat aholisini ish bilan band qilish ko'zda tutilmoqda.

Xorijiy onlayn platformalarni tartibga solish va chet el fuqarolari uchun maxsus soliq rejimlari O'zbekistonning jahon iqtisodiy maydonidagi o'rnini mustahkamlashga va zamonaviy moliyaviy oqimlarni boshqarishga intilayotganidan dalolat beradi. Jadal islohotlar natijasida, 2026-yilga borib O'zbekiston soliq tizimi to'liq raqamlashtirilgan, ijtimoiy yo'naltirilgan va har bir soliq to'lovchi uchun tushunarli bo'lgan ochiq tizimga aylanadi.

Bu islohotlarning pirovard natijasi esa yuqorida qayd etilganidek, faqat bitta maqsadga ya'ni aholi farovonligi va yurt tinchligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini isloh qilish jarayonlari mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi asosida olib borilayotgan yangilanishlar soliq ma'murchiligini soddalashtirish, raqamlashtirish va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. 2024-yil yakunlari va 2025-yil birinchi choragi natijalari soliq tushumlarining barqaror o'sishini, xufiyona iqtisodiyot ulushining qisqarishini hamda xizmat ko'rsatish sohasida, ayniqsa tezkor taksi xizmatlarini legallashtirish orqali budjet daromadlarining oshganini ko'rsatmoqda.

Raqamli markirovkalash, elektron integratsiya tizimlari, onlayn nazorat-kassa texnikalari va agregator platformalarning soliq organlari bazasi bilan bog'lanishi inson omilini kamaytirish, korrupsion holatlarning oldini olish va teng raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bu esa soliq tizimining nafaqat fiskal, balki tartibga soluvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalari ham kuchayib borayotganidan dalolat beradi.

2026-yildan boshlab joriy etilishi kutilayotgan yangiliklar — xorijiy onlayn platformalarni soliqqa tortish, "Eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla" loyihasi, Ochiq budjet portali orqali soliqlar sarfini ochiqlash, ayrim sohalar uchun imtiyozli soliq stavkalarini belgilash — soliq tizimining ijtimoiy yo'naltirilganligini yanada kuchaytiradi. Ayniqsa, mahalliy budjet mablag'larining bevosita hudud infratuzilmasini yaxshilashga yo'naltirilishi fuqarolarning soliq madaniyatini oshirish va davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida O'zbekiston soliq tizimi bosqichma-bosqich zamonaviy, raqamlashtirilgan, shaffof va barqaror tizimga aylanmoqda. Bu jarayonning pirovard maqsadi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash hamda aholi farovonligini oshirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Toshkulov Abdukodir va Xudoyqulov Sadirdinning " Soliq nazariyasi " darslik kitobi.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 149-modda.
3. O'zbekiston Respublikasining kodekslari to'plami, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi ,17-moddasi.
4. <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/46145>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/29/january/>